UO‘K 811.1

SO‘Z O‘ZLASHTIRISH TILLARARO ALOQANI YUZAGA KELTIRUVCHI SOTSIOLINGVISTIK OMIL SIFATIDA

V.A. Vositov

O‘zbek xalqiga notanish tushuncha va predmetlarning lingvistik tavsifi uchun xarakterli bo‘lgan so‘zlarni tadqiq qilish tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan sanaladi. XX asrga kelib turkiy o‘zlashmalar masalasini tadqiq qilish tilshunoslarda katta qiziqish uyg‘otdi. Ingliz tilida paydo bo‘lgan turkiy leksik birliklar ijtimoiy-siyosiy jihatdan yoki bevosita hududiy yaqin yashagan til egalarining aloqalari tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ammo uzoq masofada yashagan, milliy mentaliteti har xil bo‘lgan xalqlarning til aloqalari yetarli darajada o‘zbek va chet el tilshunosligida tadqiq etilmagan. Maqolada turkiy leksik birliklarning tillararo aloqaning yuzaga chiqishidagi omil ekanligi va tilshunoslar tomonidan o‘rganilishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *etnik identifikatsiya, til aloqasi, bilingvizm, diglossiya, bidialektal, retseptiv, reproduktiv, produktiv, koordinativ, subordinativ*.

Исследование слов, характерных для языкового описания незнакомых узбекскому народу понятий и предметов, считается одной из наиболее актуальных проблем языкознания. К XX веку изучение вопроса тюркских ассимиляций вызвало большой интерес среди лингвистов. Хотя тюркские лексические единицы, появившиеся в английском языке, изучены лингвистами в социально-политическом аспекте или в аспекте связей непосредственно территориально близко друг к другу проживающих носителей языка, однако языковые отношения народов, проживавших далеко друг от друга и имеющих разный национальный менталитет, в узбекском и зарубежном языкознании достаточно не изучены.

В статье анализируется тот факт, что тюркские лексические единицы являются фактором возникновения межъязыковой коммуникации, и вопросы их изучения лингвистами.

Ключевые слова: *этническая идентификация, языковой контакт, билингвизм, диглоссия, бидиалектальный, рецептивный, репродуктивный, продуктивный, координативный, субординативный.*

Kirish

Jamiyat dunyoqarashini me’yorlashtirishning zamonaviy sharoitida etnik identifikatsiya muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Etno-lingvistik identifikatsiya jarayonlari muloqot va ijtimoiy xulq-atvor tamoyillarini tanlash va millatlararo aralashuv turlariga bog‘liq [1. B. 153].

Til aloqalari umumlingvistik muammolardan biri hisoblanib, uning tadqiq qilinishi tillarning o‘zaro aloqalarini aniqlash uchun muhim ahamiyatga egadir. Til aloqalari so‘z o‘zlashtirishning bevosita va bilvosita omillari ekanligi, o‘zlashgan so‘zlarning fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari bo‘yicha ham muayyan ilmiy natijalarga erishilgan. Yagona davlat chegarasi doirasida yashovchi hamda bitta ijtimoiy-siyosiy tuzumga kiruvchi yoki bevosita hududiy yaqinlikka ega bo‘lgan til egalarining aloqalari tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan.

Material va usullar

Tilshunoslikda til aloqalari hodisasining o‘rganilishi tadqiqi uchun L.I.Barannikovaning “Til aloqalari xususida” (“О языковых контактах”), T.P.Ilyashenkoning “Til aloqalari” (“Языковые контакты”), U.Vaynrayxning “Til aloqalari” (“Языковые контакты”), G.M.Vishnevskayaning “Ikki tillilik va uning jihatlari” (“Билингвизм и его аспекты”), E.V.Opel-

baumning “Nemis tilidagi sharqiy slavyan leksik elementlari” (“Восточнославянские лексические элементы в немецком языке”), O.Jumaniyozovning “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari” kabi ilmiy asarlari tahlilga tortildi.

Muammoni o‘rganishda madaniy, struktur, statistik tahlil, lingvistik tavsiflash tahlil usullari qo‘llandi.

Natijalar va muhokama

Til aloqasining yuzaga kelishiga ko‘plab omillar sabab bo‘lgan. Tilshunos olim N.V.Labunets lingvistik kontaktologiyaning obyekti sifatida tillararo aloqani yuzaga keltiruvchi omil xalqlarning tarixiy-madaniy munosabatida deb ko‘rsatadi [2. B. 17]. Tillarning o‘zaro ta’sirining zamonaviy nazariyasi azaldan tilshunoslar e’tiborida bo‘lgan va hozirda mazkur masala turli lingvo-kontaktologik yo‘nalishlar tizimida rivojlanishda davom etmoqda. Til aloqasining tabiatini tushunishda ularni tarixiy va tipologik nuqtayi nazardan tahlil qilish lozim.

Til aloqasining tarixiy aspekti ikki yoki undan ortiq yaqin, chegara hududda yashagan etnik jamoaning og‘zaki muloqotini ko‘rib chiqadi va bu aloqa tezkor ravishda iqtisodiy, maishiy kabi ehtiyojlardan kelib chiqqan holda sodir bo‘lgan. Etnik guruhlar o‘zaro munosabatda bo‘lganda til aloqasi qator lingvistik va nolingvistik omillar ta’siri ostida nutq (etno-nutq), dialekt (etnodialekt) ko‘rinishda sodir bo‘ladi. Til aloqasi jarayonida nutq sinxron, til esa diaxron aspektda yuzaga chiqadi.

Til aloqasining tipologik jihati uning asosiy parametrlarini ko‘rsatish nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi: aloqani o‘rnatish usuli, aloqaning davomiyligi va barqarorligi, aloqa holatining tabiati, aloqa a’zolarining unda ishtirok etish darajasi, xalqning hududiy joylashuvi, genetik va tuzilmaviy yaqinlik, til aloqasining natijasi [2. B. 16].

Tilshunos olim G‘.M.Hoshimov har qanday qiyoslanayotgan yoki aloqadagi tilni lingvistik jihatdan tadqiq qilish bo‘yicha yigirmadan ortiq eng samarali va sinovdan o‘tgan qiyosiy-tipologik tahlil tamoyillarini qo‘llashni tavsiya etadi [3. B. 6]. Muallif tavsiya etilgan tamoyillar orasida taqqoslanayotgan tillarda o‘zlashmalarni (substrat/superstrat/adstrat) hisobga olish prinsipi alohida ahamiyatga molikligini ta’kidlaydi.

Tilshunos S.V.Svinsova kelib chiqishi ingliz-amerika tili leksikasidan bo‘lgan so‘zlarning tillarga o‘zlashishi va ularning tilda struktural-semantik jihatdan adaptatsiyasi dunyoning ko‘p tillarida, shular orasida ispan tilida ham sodir bo‘lganligi masalasida izlanishlar olib borgan [4. B. 3–4]. Uning turli darajadagi leksik sistemasi intensiv ravishda ispan tilidagi shu ma’nodagi so‘zlarga faol ta’sir ko‘rsatgan. Bu Ispaniya, Lotin Amerikasidagi ispan tiliga, shuningdek, kelib chiqishi Kuba, Puerto-Riko, Meksikadan bo‘lgan taxminan 13% aholi so‘zlashuvchi tiliga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Shunday qilib, ingliz-amerika tili leksik birliklarining ispan tiliga o‘tishi bilvosita til aloqasi sharoitida sodir bo‘lgan. So‘z o‘zlashtirish turli hududlarda yashovchi, ikki xil tilda so‘zlashuvchi xalqning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, sport va savdo-sotiq aloqalarining o‘zaro ta’siri, shuningdek, matbuot, televideniye, kino va video ishlab chiqarish orqali yuzaga keldi.

Ispan tiliga so‘z o‘zlashishning asosiy cho‘qqisi XX asrda yangi til aloqalari vositalarining paydo bo‘lishi davriga to‘g‘ri keldi. Bu paytga kelib AQSh nafaqat Buyuk Britaniyani, balki Britaniya ingliz tilisining kuch-qudratini yo‘qotishga va ingliz tilining amerikancha variantini dunyoga tanitishga harakat qildi. Natijada, ispan tiliga Britaniya ingliz tilisi emas, balki amerika ingliz tilisidan so‘zlar o‘zlashdi.

Zamonaviy tadqiqotchilar bir tildan ikkinchi tilga so‘z o‘zlashishidagi ekstralingvistik va intralingvistik sabablar bilan birgalikda psixologik, ijtimoiy va pragmatik omillarni ham hisobga olishni, ular quyidagilardan iborat ekanini ko‘rsatadi [5. B. 8–9]:

1. Xalqlarning tarixiy aloqalari va ikki tillilikning mavjudligi. Xalqlarning aloqasi qanchalik uzoq bo‘lsa, manba tilning qabul qiluvchi tilga bo‘lgan ta’siri shunchalik katta bo‘ladi.

2. Yangi voqea-hodisa, predmetlarni nomlashga bo‘lgan ehtiyoj (*интернет, модем, дистрибьютер, сервер*).

3. Har qanday faoliyat sohasida millatning innovatsiyasi (*жинсь, слакс, бриджи, лизинг*).

4. Til snobizmi, moda. Yoshlarning inglizcha so‘zlardan jargon sifatida yoki o‘zining o‘qimishli, boshqa madaniyatdan xabardor ekanligini ko‘rsatmoqchi bo‘lib foydalanishi (*шузь, панас, мазер, юзер, лузер, лоудинг*).

5. Til vositalaridan foydalanishda tejamkorlik qonuni. Ayrim paytlarda ingliz tilidan o‘zlashgan so‘z rus tilidagi muqobiliga nisbatan qisqaroq bo‘ladi. Masalan, “*Grin kart” “*Amerikada yashashga ruxsat olish” jumlasining perifraza qilingan shaklidir, “*xedxanter”* so‘zi bo‘sh ish o‘rniga kimnidir kasbiy tayyorgarlik ko‘rsatish uchun qidirayotgan shaxs, “*lizing”* mashinani uzoq muddatda ijaraga olib foydalanishga ruxsat berish, “*bestseller”* eng ko‘p sotiladigan kitob, “*triller”* qo‘rqinchli kino ma’nolarida perifraza qilinadi.

6. O‘zlashgan so‘z qabul qiluvchi tildagi lakunani to‘ldiradi. Masalan, *sotuvchi – shopper, merchendayzer*, *darbozabon – golkiper, hakam – referi* so‘zlari bilan almashib qo‘llanila boshladi.

7. Sayohat, ilmiy tadqiqot va madaniyat almashinuvi natijasi.

Ingliz tili leksikasida turkiy tillarga xos so‘zlar qatlami uchrab turadi. Bu esa tarixiy taraqqiyot natijasida xalqlarning bir-biri bilan yozma va og‘zaki muloqoti, savdo-sotiq, diplomatik aloqalar, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, qolaversa, xunn qabilalarining Yevropa mamlakatlariga yurishlari oqibatida yuzaga kelgan [6. B. 217].

Til aloqalari natijasida ingliz tili leksik qatlamiga turkiy so‘zlar o‘zlashadi [7].

Til aloqalari muammolarini o‘rganish chet el va o‘zbek tilshunosligida qadimiy an’anaga ega, lekin “til aloqalari” termini birinchi marta A.Martine tomonidan kiritilgan. Rus tilshunosligida til aloqalarini o‘rganish I.A.Boduen de Kurtene, L.V.Shcherba, E.D.Polivanov, o‘zbek tilshunosligida A.Tursunov, D.S.Qulmamatov, Sh.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abuzalova, A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva, B.X.Daniyarov, S.E.Normamatov, O.T.Xujanova, N.A.Isakova, A.M.Qo‘ldoshev kabilar tomonidan amalga oshirilgan.

1900-yilda “Barcha tillarning bir-biriga aralashish xarakteri haqida”gi ma’ruzasida I.A.Boduen de Kurtene qayd qilgan edi: “Ko‘chmanchi hayot, harbiy yurishlar va umuman harbiy xizmat, yov qabilalarning ayollari va qullarini o‘g‘irlash, keyin savdo-sotiq, ilmiy aloqalar va hokazo – bularning hammasi tillarning aloqasiga ko‘maklashuvchi omillardir” [8. B. 364].

Rus tilshunosligida “kontakt” (“aloqa”) atamasi birinchi bor L.V.Shcherba tomonidan 1926-yilda “Tillarning bir-biriga ta’sir qilishi tushunchasi” maqolasida qo‘llanilgan [9. B. 3–4].

Keyingi yillarda til aloqalari muammosining tadqiqiga A.Martine, E.Xaugen, U.Vaynrayx, B.V.Gornung, B.A.Serebrennikov, Y.D.Desheriyev, V.Y.Rozensveyg, F.P.Filin, A.M.Rot, E.V.Opelbaum, A.M.Abayeva, T.P.Ilyashenko kabi tilshunoslarning ishlari bag‘ishlangan. Bu muammoning tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarning soni ko‘pligiga qaramasdan, keyingi yillarda keng tarqalgan “til aloqasi” termini tilshunoslar tomonidan bir xil ma’noda qo‘llanilmayapti. Shu sababli “til aloqasi” terminini tushunishni aniqlashtirish zarurati paydo bo‘ladi [10. P. 174].

Ayrim tadqiqotchilar “til aloqasi” deganda insonlar tomonidan kommunikatsiyada ikki yoki undan ortiq tillardan vaqti-vaqti bilan ma’lum maqsadda foydalanishni tushunadi. Bu tadqiqotchilar “til aloqasi” terminini U.Vaynrayxning: “...ikki yoki undan ortiq tillar aloqada bo‘ladi, agar ular o‘sha til sohiblari tomonidan vaqti-vaqti bilan qo‘llanilsa” [11. B. 3], degan ta’rifidan kelib chiqib qo‘llaydilar. “Til aloqasi” terminini bunday tushunish L.Zavadovskiy, E.Xaugen, T.P.Ilyashenko tadqiqotlarida ham uchraydi [11. B. 296; 12. B. 61–80; 13]. Ularning ta’kidlashicha, “til aloqasi” atamasi “bilingvizm” terminiga sinonimdir.

“Til aloqasi” terminiga tilshunoslar tomonidan berilgan ta’riflarga e’tiborimizni qaratsak. L.Zavadovskiy mazkur terminga quyidagicha yondashadi: “Agar so‘zlovchi (faol yoki nofaol tarzda) tilning ikki dialektini bilsa yoki undan foydalansa, dialektlar (yoki tillar) o‘rtasida til aloqasi mavjud bo‘ladi” [7. B. 296]. Boshqa tadqiqotchi V.Y.Rozensveyg til aloqasini tasvirlovchi tilshunosning asosiy vazifasi ikki tillilik jarayonini o‘rganishdir, deb hisoblaydi [14. B. 59].

“Til aloqasi” terminini bunday tor tushunishga e’tiroz bildirish qiyin, ammo “bilingvizm” bilan “til aloqasi” o‘rtasidagi mavjud farqni e’tiborga olish zarur. Bundan kelib chiqib, tilshunos olim T.P.Ilyashenkoning til aloqasi faqat bilingvizm bazasidagina namoyon bo‘ladi, degan fikriga qo‘shilishmaslikning iloji bo‘lmaydi [13. B. 25].

Yuqorida ko‘rsatilgan “til aloqasi” termini ta’rifining asosiy kamchiligi shundan iboratki, “til aloqasi”ning natijasi bilingvizm hodisasiga olib boradi, ayni paytda, T.P.Ilyashenkoning to‘g‘ri qayd qilishicha, “til aloqasi” – bu ancha

ko‘lamli tushunchadir, chunki til aloqasi ham bilingvizmning umumiy jarayonida, adabiyotlar o‘rtasidagi aloqalar bazasida, tarjimalar yordamida va xilma-xil uslublardagi individual, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan aloqalar natijasida, badiiy adabiyotda namoyon bo‘lishi mumkin [10. B. 174–175; 13. B. 27].

Tilshunos olim O.S.Axmanova til aloqasi tushunchasini “turli tilda so‘zlashuvchi hudud aholisining zaruriyatdan kelib chiqqan holda o‘zaro aloqasi natijasida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan aralash til”, deb ta’riflaydi [15. B. 531].

“Til aloqasi” va “bilingvizm” terminlariga o‘zbek tilshunoslari ham o‘z qarashlarini bildiradi. Masalan, N.Shayxislamov “Hozirgi kunda o‘zbek tilining qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar bilan aloqalari hamda bilingvizm (ikki tillilik, ikki tilda muloqot qilish malakasiga egalik) bilan bog‘liq hodisalarni tadqiq qilish o‘zbek tilshunoslari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Tillararo aloqalarning kuchayishi bu masalani dunyo tilshunosligi miqyosida atroflicha tadqiq etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Zotan, tillarning to‘qnashuvi (to‘qnashuv so‘zi kontakt terminining to‘liq muqobili bo‘la olmasligi sababli bu tushuncha uchun o‘zbek tilshunosligida ham kontakt so‘zini qo‘llash maqbuldir), kontakti tarixiy zaruriyat bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri tabiiy tillar rivojining ajralmas qismidir”, deb fikr bildiradi [16. B. 119].

Tilshunos olim O.Jumaniyozov ikki tillilik masalasida quyidagicha to‘xtalgan: “Ma’lumki, bir tildan ikkinchi bir tilga muayyan bir so‘z o‘tishi uchun sharoit lozim. Bu sharoit ikki tilning shunchaki aloqasi, yonma-yon, qo‘shni bo‘lib yashashi, territorial birligi kabi omillar bilan bir qatorda, ularning o‘zaro ta’sir darajasi, hamkorlik ko‘lami va shularning ijobiy samarasi asosida yuzaga keluvchi ikki tillilik hodisasi bilan bog‘liqdir” [17. B. 9].

Shu o‘rinda bilingvizm, diglossiya, bidialektal kabi terminlarni bir-biridan ajratish lozim. Bilingvizm ikki tilni egallagan shaxs bir paytda ikki tilning biridan, diglossiya esa ikki tilni biluvchi shaxs biridan muloqot, ikkinchisidan boshqa, masalan, yozish maqsadida foydalanishidir. Bidialektal atamasi esa bir tilning ikki lahjasidan foydalanishni anglatadi. Shuningdek, tilshunoslikda faqat bir til sohiblariga nisbatan monolingv, ikki tilni egallagan shaxsga nisbatan bilingv, uchta tilni biladigan shaxsga nisbatan trilingv, ko‘p tillarning sohibiga nisbatan polilingv yoki poliglot terminlari qo‘llaniladi. Bilingvizm masalasi bilan shug‘ullangan rus tilshunosi M.V.Lisnik fransuz tilida so‘zlashuvchi rus xalqi nutqida rus va fransuz tillarining aralashuvida nutq kompressiyasi hodisasini tahlil qilgan [18. B. 4]. Uning ta’kidlashicha, bilingvizm termini birinchi bo‘lib U. Vaynrayx tomonidan taklif etilgan va bilingvizm ikki tilni muqobil ishlatish amaliyotidir.

Bilingvizm masalasi bir necha yillardan beri ko‘plab tilshunoslar diqqat-e’tiborini tortgan. Shu o‘rinda L.V.Shcherba ikki tillilikni sof va aralash kabi asosiy ikki turga ajratadi [19. B. 314]. E.M.Vereshaginning tadqiqotida esa bilingvizm psixolingvistik va metodik mezonlarga ko‘ra sof va aralash, bevosita va bilvosita, tabiiy va sun’iy, retseptiv, reproduktiv va produktiv, koordinativ va subordinativ turlarga bo‘linadi [20. B. 49]. Tilshunos olim G.M.Vishnevskiy fikricha, bilingvizmning eng ko‘p tarqalgan turi yuzaga kelish asosiga ko‘ra “tabiiy” va “sun’iy”dir [21. B. 98].

Sof va aralash bilingvizm turlari o‘rtasida tafovutlar borligini L.V.Shcherba aniq misollar orqali isbotlab beradi [22. B. 6–7]. Sof bilingvizm – bu so‘zlovchi ongida tillar bir-biridan mustaqil sistema sifatida ajralishi, ular orasida hech qanday qiyos-zidlikning yo‘qligidir, degan fikrni bildiradi. Masalan, XIX asr rus aristokratlari rus va fransuz tillarida nisbatan erkin so‘zlashgan bo‘lsalar-da, fransuz tilidan rus tiliga, rus tilidan fransuz tiliga tarjima qila olmasliklarini asos qiladi. O‘sha vaqtlarda Rossiyada ikkinchi tilga o‘rgatish ayol murabbiylar tomonidan amalga oshirilar edi. Odatda, rus tilini umuman bilmaydiganlar ataylab tanlanar edi. Mazkur metodni L.V.Shcherba “Guvernant ayol metodi” deb nomlagan [23. B. 26].

Bevosita va bilvosita bilingvizm haqida to‘xtalganimizda, bevosita bilingvizm tabiiy ko‘rinishda, ya’ni hududiy yaqin bo‘lgan turli tilda so‘zlashuvchi xalqlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti, bilvositada esa uzoq hududda yashab, lekin ikkinchi tilni ehtiyojdan kelib chiqib o‘rgangan va natijada ikki til sohibiga aylangan holatni tushunish mumkin.

Tabiiy bilingvizmda ikkinchi til ta’siri kuzatilmaydi. Masalan, ingliz-skandinav, o‘zbek-rus, o‘zbek-tojik tillarida so‘zlashuvchilarda fonetik, leksik va grammatik moslashmaslik holati

kuzatilmaydi. Qolaversa, hududiy jihatdan yaqinlik bo‘lganligi sabab ikki tilda so‘zlashuvchi xalq avvaldan qo‘ni-qo‘shnichilik, savdo-sodiq kabi munosabatlarini o‘rnatgan, aytish mumkinki, bir-biriga aralashib ketgan. Lekin o‘zbek-rus ikki tilliligida sun’iy bilingvizm kuzatilishi mumkin. Sun’iy bilingvizmda ikki tilni biluvchi shaxs ma’lum darajada aksent bilan gapiradi. Bu esa ushbu tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning geografik jihatdan uzoqda joylashganligi va ular o‘rtasida yaqin rishtalarning o‘rnatilmaganligida deb ko‘rsatish mumkin. Masalan, *o‘zbek-ingliz, o‘zbek-yapon* kabi.

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqan holda tabiiy bilingvizmni kontakt, sun’iy bilingvizmni esa distant deb aytish mumkin.

Bilingvizmning retseptiv, produktiv, koordinativ turlari ham mavjud.

Retseptiv bilingvizmda shaxs ikkinchi tilni tushunadi, lekin unda erkin muloqotga kirisha olmasligi tushuniladi.

Produktiv bilingvizmda shaxsning har ikki tilda faolligi, ikki tilda nutqni teng idrok eta olish qobiliyati, reproduktiv bilingvizmda esa shaxsning nafaqat ikki tilni tushunish qobiliyati, balki ularda erkin gapira olishi kuzatiladi.

Koordinativ bilingvizmda ikki tilni alohida tizim sifatida ularni bir-biriga aralashtirmasdan bilish, subordinativ bilingvizmda esa shaxsning bir til (ona tili)ni bilishi ikkinchi tilga nisbatan ustunlik qiladi, uning ikkinchi tilni tushunishi va unda gapirishi qiyinroq kechadi.

Bilingvizmning yashash hududi yaqin bo‘lib muloqotda bo‘lgan xalqlarda yuzaga chiqish darajasiga ko‘ra Y.D.Desheriyev bir tomonlama va ikki tomonlama bilingvizmni ajratadi [24. B. 20]. Bir tomonlama bilingvizmda bir xalq ikkinchi xalqning tilini bilmaydi, ikkinchi xalq esa ikkala tilni biladi. Ikki tomonlama bilingvizmda ikkala xalq bir-birining tilini biladi va amalda qo‘llay oladi. Bir tomonlama va ikki tomonlama bilingvizm tushunchalari tillarning o‘zaro ta’sirida ahamiyatli hisoblanadi. Bir taraflama bilingvizmda tillarning o‘zaro ta’siri ham bir taraflama bo‘ladi [25. B. 264].

Ikki taraflama bilingvizmda tillarning o‘zaro ta’siri har ikki tilda ham yuz beradi. Shuning uchun ham bir taraflama va ikki taraflama bilingvizmni o‘rganish tillarning o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Tilning funksional tomonini o‘rganganda ham uni inobatga olish foydadan holi emas [23. B. 26].

Tadqiqotchi N.Shayxislamov til aloqasining asl mohiyatiga to‘xtalib, ikki va undan ortiq tilning fonetik, leksik-semantik hamda sintaktik tuzilishiga ta’sir qiluvchi o‘zaro aloqalar va munosabatlar til kontaktlari hisoblanishini aytib, tabiiy tillardagi til sathlarining o‘zaro munosabati va ta’siri deganda tillararo aloqalardagi o‘zgarishlarda ifodalangan tushunchalar anglashiladi, deydi [16. B. 119–120]. Ayni paytda til kontaktlari va kontakt til terminlarini ham o‘zaro farqlab olish lozimligini ta’kidlab, “Kontakt til – so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi nutqiy muloqotni yuzaga chiqaruvchi tildir. Bunda ikki holat farqlanadi: 1.Kontakt til – aloqaga kirishgan millatlardan birining tili. U yoki bu jamiyatda muloqot shakli vaziyatga ko‘ra birinchi yoki ikkinchi millat tilida bo‘lish mumkin. 2.Ba’zan o‘zaro aloqaga kirishuvchi har ikki millatning tili ham kontakt til hisoblanmasligi mumkin. Bunda kommunikativ munosabat – nutqiy muloqot uchinchi til orqali amalga oshiriladi. Bunday holatlarda kontakt til vositachi til maqomini oladi. Til kontaktlariga oid tushunchalarni ifodalovchi atamalardan yana biri bilingvizmdir. Bilingvizm ikki tillilik bo‘lib, millat vakillarining muayyan ikki tilda so‘zlasha oladigan shaxslari esa bilingvlar deyiladi. Til interferensiyasi ham shunday terminlardan biri bo‘lib, u ona tiliga xos xususiyatlarni boshqa bir tilda beixtiyor qo‘llab yuborishdir”, degan fikrni ilgari suradi.

Til konvergensiyasi tillarning tarixiy bog‘lanishi, kontaktlar (to‘qnashuv) natijasidagi yaqinlashuv va o‘xshashliklarning paydo bo‘lishini ifoda etadi, qarindosh hamda qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida yuz beradi. Til divergensiyasi atamasi ostida esa aslida bitta bo‘lgan qarindosh tillar birliklari o‘rtasidagi aloqadorlikning uzoqlashuvi (jumladan, nutq tovushlarining bo‘linishi) tushuniladi. Masalan, qadimgi turkiy tildagi *t* fonemasining *t* va *d* tovushlariga ajralib ketishi: *tog‘* (o‘zbek tilida) – *dag‘* (ozarbayjon tilida), *tog‘a* (o‘zbek tilida) – *dai* (ozarbayjon tilida) [26. B. 112].

Ko‘rinadiki, til konvergensiyasi va divergensiyasi terminlari o‘zaro zid lisoniy hodisalarni anglatadi, ya’ni til konvergensiyasida yaqinlashuv va o‘xshashlik, til divergensiyasida esa uzoqlashuv va noo‘xshashlik sodir bo‘ladi.

Adstrat turli xalqlarning uzoq vaqt davomida bir mintaqada hamda til kontaktlari sharoiti-

da yashashi natijasida shakllangan til tizimining umumiy belgilar majmuidir. Masalan, o‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va ta’sirlar til sistemalarining umumiy belgilari uchun namuna bo‘ladi. Bunda har ikki tildagi fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga xos umumiyliklar adstrat sanaladi. Adstrat jarayonida etnik assimilyatsiya va bir tilning ikkinchisi ichida yo‘qolib ketish hodisasi sodir bo‘lmaydi. Kontakt lingvistikasida substrat va superstrat terminlari ham qo‘llanadi. Ikki tilning o‘zaro chatishuvi natijasida mag‘lub elementlarning g‘olib til strukturasidagi belgilari substrat va superstrat hodisalari deb yuritiladi. Substrat keng etnik aralashuv va ikki tillilik orqali mahalliy xalq tilining kelgindilar tiliga singib ketishidir. Masalan, miloddan avvalgi III–II asrlarda rimliklar Iberiya (bugungi Ispaniya) hamda Galliyani (bugungi Fransiya) bosib olishgan. Mazkur hududlarda mahalliy til va lotin tili bilingvizmi vujudga keladi. Rimliklar ta’sirida mahalliy til – lotin tili bilingvizmi davri mahalliy xalqlarning to‘liq lotin tiliga o‘tishlari bilan yakunlanib, lotin tili negizida hozirgi zamon ispan hamda fransuz tillari shakllangan. Mazkur tillarda mavjud iber (ispan tilida) va gall (fransuz tilida) tillarining elementlari substrat hodisasiga misol bo‘ladi. Kelgindi etnik guruhlar tilining mahalliy tilda qoldirgan belgilari esa superstratdir [26. B. 112–113].

“Til aloqasi” atamasining keng talqini O.Espersen, B.A.Serebrennikov, Y.O.Jluktenko, E.V.Opelbaum, A.M.Rot va boshqalarning ishlarida ham uchraydi.

Substrat yoki superstrat hodisalariga N.Shayxislamov ikki tilning o‘zaro chatishuvi natijasida mag‘lub elementlarning g‘olib til strukturasidagi belgilari mazkur tushunchani ifodalaydi, deb qaraydi. Substrat tushunchasi keng etnik aralashuv va ikki tillilik orqali mahalliy xalq tilining kelgindilar tiliga singib ketishidir. Masalan, XX asrda roman filologiyasining asoschisi F.Dits roman tillarini hudud tamoyili bo‘yicha g‘arbiy va sharqiy guruhlarga ajratishda tillarning fonetik, qisman morfologik xususiyatlarini inobatga olgan. Bunda, albatta, til rivojining tarixiy tomonlari hisobga olingan. Ulardan eng mohiyatlisi jarangsiz intervokal undoshlarning (*p, t, k*) jarangliga (*b, d, g*) aylanishidir. Yana boshqa misolga e’tibor qaratsak, rimliklar Angliyani eramizdan avvalgi II–I asrlarda bosib olganda shu yerlik anglo-saksonlarda ikki tillilik shakllangan. Yoki 1066-yildan boshlab normandlar istilosi paytida yana Angliyada ikki, hatto uch tillilik paydo bo‘lgan. Bunda ingliz tili normand va lotin tillariga aralashib ketgan. Hatto tillar aralashuvi natijasida anglo-normand dialekti ham yuzaga kelgan.

Xulosa

Shunday qilib, til aloqalari bilingvizm (tabiiy, sun’iy), trilingvizm, polilingvizm ko‘rinishida tillar va turli sheva sohiblarining siyosiy, savdo-sotiq, diplomatik munosabatlaridagi bevosita va bilvosita til aloqalari natijasida sodir bo‘ladi va bu sotsiolingvistik omil sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar:

1. *Серебренников Б.А*. Взаимодействие языков (Проблема субстрата). // Вопросы языкознания, 1955. – № 1. – С. 7–25.

2. *Лабунец Н.В*. Русская географическая терминология в ситуации языкового контакта: Автореф. дисс... д-ра филол.наук. – Екатеринбург: 2007. – 46 с.

3. *Hoshimov G.M*. Lectures on Comparative Typology (Third edition, revised). – Andizhan, 2017. – 100 p.

4. *Свинцова С.В*. Специфика структурно-семантической адаптации заимствований и их функционирование в условиях опосредованных и непосредственных языковых контактов: на материале англо-американизмов в испанском языке Испании и США: Автореф. дисс. ...канд.филол.наук. – Саратов: 2006. – 24 с.

5. *Шайхутдинова Р.Р*. Англо-русские языковые контакты конца XX – начала XXI вв. В сравнительном освещении: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань: 2008. – 23 с.

6. *Жлуктенко Ю.А.* Проблеми інтерлінгвістики. – Київ: Видавництво Київського університету ім. Т.Г. Шевченка, 1966. – 135 с.

7. *Ҳамдамов Ҳ*. Европани титратган туронлик саркарда. [Интернет манба]. URL: https://www.facebook.com/groups/246149995752425/permalink/594870597547028/ (Мурожаат этилган сана: 07.08.23)

8. *Бодуэн де Куртенэ И.А*. Избранные труды по общему языкознанию. Т. I. – Москва: Изд-во Академии наук СССР, 1963. – 391 с.

9. *Щерба Л.В*. Яфетический сборник. IV. – Петербург, 1926. – 427 с.

10. *Vositov V*. Study of Language Contacts by Linguists. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 2022. – Vol. 9. – P. 174–177.

11. *Zawadowski L*. Les dialects d'origine différente en contact. // Orbis, 1961. – Vol. 10. – № 2.

12. *Хауген Э*. Языковой контакт // В кн.: Новое в лингвистике. – Москва: Прогресс, 1972. Вып. VI. – С. 61–80.

13. *Ильяшенко Т.П.* Языковые контакты (на материале славяно-молдавских отношений). – Москва: Наука, 1970. – 205 с.

14. *Розенцвейг В. Ю*. Языковые контакты. – Ленинград: Наука, 1972. – 80 с.

15. *Ахманова О.С.* Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. – 606 с.

16. *Шайхисламов Н*. Замонавий тилшунослик йўналиши: Контакт лингвистикаси. // "Scientific Progress" Scientific Journal, 2023. – Vol. 1. Issue 4. – Б. 118–123.

17. *Жуманиёзов О*. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987. – 86 б.

18. *Лисник М.В*. Лингвистические признаки речевой компрессии в ситуации искусственного билингвизма (русско-французский языковой контакт): Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Ярославль: 2005. – 20 с.

19. *Щерба Л.В*. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974. – 427 с.

20. *Верещагин Е.М*. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма). – Москва: Московский государственный университет, 1969. – 159 с.

21. *Вишневская Г.М.* Билингвизм и его аспекты. – Иваново: ИвГУ, 1997. – 98 с.

22. *Щерба Л.Б*. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1958. – 184 с.

23. *Зокиров М*. Билингвизм ҳодисасининг умумий тавсифи хусусида // Ученый XXI века. 2015. – № 7– 8. – С. 24–27.

24. *Дешериев Ю.Д*. Проблема создания системы билингвальных понятий и вопросы методики её применения в исследовании // В кн.: Методы билингвальных исследований. – Москва: Наука, 1976. – С. 20–33.

25. *Зокиров М.Т*. Билингвизм ҳодисасининг умумий тавсифи хусусида // НамДУ Илмий ахборотномаси – Научный вестник НамГУ, 2019. – № 10. – Б. 264–268.

26. *Шайхисламов Н*. Контакт лингвистикаси ва унинг терминологияси // "Хорижий тилларни ўргатишда замонавий инновацион технологиялардан фойдаланишнинг мақсад ва вазифалари ҳамда долзарб усуллари". Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжуман материаллари. – Бухоро, 2020. – Б. 112– 113.

27. *Горнунг Б.В*. К вопросу о типах и формах взаимодействия языков. // Доклады и сообщения института языкознания АН СССР. – Москва, 1952. – № 2. – С. 3–7.

28. *Баранникова Л.И.* О языковых контактах. / В кн.: Взаимодействие и взаимообогащение языков народов СССР. – Москва, 1969. – С.197–201.

29. *Рот А.М*. Венгерско-восточнославянские языковые контакты: Автореф. дисс...д-ра фил. наук. – Москва: 1969. – 42 с.

30. *Опельбаум Е.В*. Восточнославянские лексические элементы в немецком языке. – Киев: Наукова думка, 1971. – 367 с.

31. *Вайнрайх У*. Языковые контакты. Состояние и проблемы исследования. – Киев: Вища школа, 1979. – 263 с.

32. *Абаев В.И.* О языковом субстрате. // Доклады и сообщения института языкознания АН СССР. – Москва, 1956. – № 9. – С. 57–69.

33. *Weinreich U*. Languages in Contact. – New York, 1953. – 263 p.

34. *Воситов В*. Инглиз тилидаги туркизмларни ўрганиш хусусида // ЎзМУ хабарлари, 2022. – №1/5. – Б. 195–197.

35. *Istomina O.B.* Language And Social Structure. Modern Journal of Language Teaching Methods (MJLTM). 2018. – № 8(2). – Pp. 151–159.

WORD BORROWING AS A SOCIOLINGUISTIC FACTOR CAUSING INTERLINGUAL CONTACT

V.A.Vositov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 7(75). 73-82.

[1]Andijan State Institute of Foreign Languages, Andijan, 170100, str., Boburshoh, 5 (Uzbekistan). E-mail: asifl_info@edu.uz

Keywords: Key words: ethnic identity, language contact, bilingualism, diglossia, bidialect, natural, artificial, receptive, reproductive, productive, coordinating, subordinative.

In the modern conditions of normalizing the worldview of society, the problem of ethnic identity is becoming relevant. Ethno-linguistic identification processes depend on the choice of principles of communication and social behavior and the types of interethnic intervention.

The modern theory of the interaction of languages has long been in the attention of linguists, and now this issue continues to develop in the system of various lingvo-contactological directions. When understanding the nature of language contact, they should be analyzed from a historical and typological point of view.

The historical aspect of language contact considers the verbal communication of two or more ethnic communities that lived nearby or border areas, and this contact occurred rapidly due to economic, domestic-like needs. When ethnic groups interact with language contact occurs in the form of speech (ethno-speech), dialect (ethno-dialect) under the influence of a number of linguistic and non-linguistic factors. In the process of language contact, speech is synchronous, speech occurs synchronously, and language diachronically.

The typological aspect of language contact is carried out from the point of view of indicating its main parameters: the method of establishing contact, the duration and stability of contact, the nature of the state of contact, the degree of members' participation of communication in it, the territorial location of the people, genetic and structural closeness, the result of language contact.

In the English lexicon a layer of words characteristic of Turkic languages is encountered. This resulted from the written and oral communication of peoples with each other, trade, diplomatic relations, socio-political proximity, as well as the campaigns of the Hunn tribes to European countries as a result of historical progress.

It is known that the degree of influence of another language in different languages is not the same. Some languages freely accept lexical material in another language, while others strongly resist accepting the lexical layer.

This can be caused, of course, by both intralinguistic factors (degree of similarity, degree of closeness of the languages with which you are getting in touch) and extralinguistic factors (presence of more or less language contacts).

Based on the above points, it can be said language contact occurs as a result of direct and indirect language contact of two language owners who are getting in touch in 1) bilingualism (bilingualism), a) natural, b) artificial bilingualism; 2) political, trade, diplomatic relations.

References:

1. Serebrennikov, B.A. (1955). Vzaimodejstvie yazykov (Problema substrata) [Interaction of Languages (The problem of Substratum)]. *Voprosy yazykoznaniya.* 1. Pp. 7-25.

2. Labunec, N.V. (2007) *Russkaya geograficheskaya terminologiya v situacii yazykovogo kontakta* [Russian geographical terminology in the situation of language contact]. Abstract of Dissertation for the Doctor of Philological Sciences. Yekaterinburg.

3. Hoshimov, G.M. (2017) *Lectures on Comparative Typology* (Third edition, revised). Andijan.

4. Svincova, S.V. (2006) Specifika strukturno-semanticheskoj adaptacii zaimstvovanij i ih funkcionirovanie v usloviyah oposredovannyh i neposredstvennyh yazykovyh kontaktov: na materiale anglo-amerikanizmov v ispanskom yazyke Ispanii i SShA [Specificity of Structural and Semantic Adaptation of Borrowings and Their Functioning in the Conditions of Indirect and Direct Language Contacts: Based on Anglo-Americanisms in the Spanish Language of Spain and the USA]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Saratov.

5. Shajhutdinova, R.R. (2008) Anglo-russkie yazykovye kontakty konca XX – nachala XXI vv. v sravnitel'nom osveshchenii [English-Russian language contacts of the late XX - beginning of the XXI centuries in the comparative light]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Kazan.

6. Zhluktenko, Yu.A. (1966) *Problemi interlingvistiki* [Problems of interlinguistics]. Kiiv: Vidavnictvo Kiïvs'kogo Universitetu im. T. G. Shevchenka.

7. Hamdamov, H. Yevropani titratgan turonlik sarkarda. [Online]. URL: https://www.facebook.com/groups/246149995752425/permalink/594870597547028/(Date of Access: 07.08.23)

8. Boduen de Kurtene, I.A. (1963) *O smeshannom haraktere vsekh yazykov*. *Izbrannye trudy po obshchemu yazykoznaniyu* [On the mixed nature of all languages. Selected works on general linguistics]. Vol. I. Moscow: Izdatel'stvo Akademii nauk SSSR.

9. Shcherba, L.V. (1926) *Yafeticheskij sbornik* [Japhetic collection]. IV. Peterburg.

10. Vositov, V. (2022) Study of Language Contacts by Linguists. Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. Pp. 174-177.

11. Zawadowski L. (1961). Les dialects d'origine differente en conact. *Orbis*. Vol. 10. Issue 2.

12. Haugen, E. (1972) *Yazykovoj kontakt* [Language contact]. In: *Novoe v lingvistike* [New in linguistics]. Release VI. Moscow: Progress. Pp. 61-80.

13. Ilyashenko, T.P. (1970) *Yazykovye kontakty (na materiale slavyano-moldavskih otnoshenij)* [Language contacts (on the material of Slavic-Moldovan relations)]. Moscow: Nauka.

14. Rozencvejg, V.Yu. (1972) *Yazykovye kontakty* [Language contacts]. Leningrad: Nauka.

15. Ahmanova, O.S. (1969) *Slovar lingvisticheskih terminov* [Dictionary of linguistic terms]. Moscow: Sovetskaya enciklopediya.

16. Shajhislamov, N. (2023) *Zamonaviy tilshunoslik jo'nalishi: kontakt lingvistikasi* [Direction of modern linguistics: contact linguistics]. *"Scientific Progress" Scientific Journal*. Vol. 1. Issue 4. Pp. 118-123.

17. Jumaniyozov, O. (1987) *O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari* [Borrowings of Germanic languages in the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

18. Lisnik, M.V. (2005) Lingvisticheskie priznaki rechevoj kompressii v situacii iskusstvennogo bilingvizma (russko-francuzskij yazykovoj kontakt) [Linguistic signs of speech compression in a situation of artificial bilingualism (Russian-French language contact)]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Yaroslavl'.

19. Shcherba, L.V. (1974) *Yazykovaya sistema i rechevaya deyatelnost* [Language system and speech activity]. Leningrad: Nauka.

20. Vereshchagin, E.M. (1969) *Psihologicheskaya i metodicheskaya harakteristika dvuyazychiya (bilingvizma)* [Psychological and methodological characteristics of bilingualism]. Moscow: Moskovskij gosudarstvennyj universitet. – 159 s.

21. Vishnevskaya, G.M. (1997) *Bilingvizm i ego aspekty* [Bilingualism and its aspects]. Ivanovo: IvGU.

22. Shcherba, L.B. (1958) *Izbrannye raboty po yazykoznaniyu i fonetike* [Selected works on linguistics and phonetics]. Leningrad: Izdatelstvo Leningradskogo universiteta.

23. Zokirov M. (2015). Bilingvizm hodisasining umumiy tavsifi xususida [On the issue of a general description of the phenomenon of bilingualism]. *Uchenyj XXI veka*. 7-8. Pp. 24-27.

24. Desheriev, Yu.D. (1976) *Problema sozdaniya sistemy bilingval'nyh ponyatij i voprosy metodiki eyo primeneniya v issledovanii* [The problem of creating a system of bilingual concepts and questions of the methodology of its application in the study]. In: *Metody bilingval'nyh issledovanij* [Methods of bilingual research]. Moscow: Nauka. Pp. 20-33.

25. Zokirov, M.T. (2019) Bilingvizm hodisasining umumiy tavsifi xususida [About the general description of the phenomenon of bilingualism]. *NamDU Ilmiy axborotnomasi – Nauchnyj vestnik NamGU*. No 10. Pp. 264-268.

26. Shajhislamov N. (2020). Kontakt lingvistikasi va uning terminologiyasi [Contact linguistics and its terminology]. In: "*Horijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning maqsad va vazifalari hamda dolzarb usullari*" ['Goals and objectives and modern methods of using modern innovative technologies in teaching foreign languages']. Materials of the republican online scientific and practical conference. Buxoro. Pp. 112-113.

27. Gornung, B.V. (1952) K voprosu o tipah i formah vzaimodejstviya yazykov [To the question of types and forms of interaction of languages]. *Doklady i soobshcheniya instituta yazykoznaniya AN SSSR* [Reports and messages of the Institute of Linguistics of the Academy of Sciences of the USSR]. No 2. Pp. 3-7.

28. Barannikova, L.I. (1969). O yazykovyh kontaktah [About language contacts]. In: *Vzaimodejstvie i vzaimoobogashchenie yazykov narodov SSSR* [Interaction and mutual enrichment of the languages of the peoples of the USSR]. Moscow.

29. Rot, A.M. (1969) Vengersko-vostochnoslavyanskie yazykovye kontakty [Hungarian-East Slavic Language Contacts]: Abstract of the dissertation of the Doctor of Philology. Moscow.

30. Opel'baum, E.V. (1971)Vostochnoslavyanskie leksicheskie elementy v nemeckom yazyke [East Slavic lexical elements in German]. Kiev: Naukova dumka.

31. Vajnrajh, U. (1979). Yazykovye kontakty. Sostoyanie i problemy issledovaniya [Language contacts. Status and research problems]. Kiev: Vishcha shkola.

32. Abaev, V.I. (1956). O yazykovom substrate [About the language substratum]. Doklady i soobshcheniya instituta yazykoznaniya AN SSSR [Reports and messages of the Institute of Linguistics of the Academy of Sciences of the USSR]. No 9. Pp. 57-69.

33. Weinreich, U. (1953). Languages in Contact. New York.

34. Vositov, V. (2022). Ingliz tilidagi turkizmlarni o'rganish xususida. // O'zMU xabarlari. 1/5, Pp. 195-197.

35. Istomina, O.B. (2018). Language And Social Structure. *Modern Journal of Language Teaching Methods (MJLTM)*. No 8 (2), Pp. 151-159.

Muallif haqida ma'lumot:

VOSITOV Valijon Abduvaxobovich – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent. E-mail: vositovvalijon7@gmail.com